

ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJIGA EGA O'QUVCHILARDA IJODIY QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHDAGI MUOMMOLAR

Farg'ona ICHSHUI kasb-hunar maktabi
Maxsus fan o'qituvchisi
Hamroqulova Sharofat Hamiddinovna

Annotasiya: *Alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish xaqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Alohida ta'lim ehtiyojiga o'quvchilar, ijodiy qobiliyatni rivojlantirish, axborot texnologiyalari, innovatsion metod.*

Mustaqilligimiz poydevorini mustahkamlash hamda O'zbekistonni buyuk davlatga aylantirishda ta'lim-tarbiya ishlarini oqilona yo'lga qo'yish, yoshlarni zamonaviy ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish muhim ahamiyatga ega. Zero, taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk, irodasi baquvvat, iymoni butun, zamonaviy fikrlaydigan, muayyan kasb-hunarga ega bo'lgan yuksak salohiyatli shaxslar hal etadi.

Bu borada Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarori, 13.10.2020 yildagi PQ-4860-son bilan tasdiqlandi. Ushbu qarorda "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda inklyuziv ta'limni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoyishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Dasturda 2020 - 2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish, inklyuziv ta'limda o'qitish usullari takomillashtiriladi hamda ta'lim jarayoniga individuallashtirish tamoyillari bosqichma-bosqich joriy etish, alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish kabi masalalarga katta e'tibor berilgan.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 23-moddasida "Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalar va o'smirlarni o'qitish, ularni tarbiyalash uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil etiladi" deyilishining o'zi ham jamiyatimizning g'oyatda insonparvarligidan dalolatdir.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni xotirasi yaxshiligini hisobga olib, alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga e'tibor berilsa kelajakda o'z o'rni topishiga zamin bo'ladi. Shuning uchun hozirgi kunda maxsus va ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktablarda imkoniyati cheklangan o'quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda. Buning natijasida ixtisoslashtirilgan maktablarda musiqiy to'garaklar tashkil qilinmoqda.

Imkoniyati cheklangan aksariyat o'quvchilarni uy ta'limida o'qiganligini hisobga olgan holda, musiqiy to'garaklar rahbarlari aynan shu toifadagi shaxslar bilan ishlash tajribasi

borligi, ta'lim jarayonida maqsadga erishishda qo'l keladi. Lekin uy ta'limida o'qib, ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktabida tahsil olayotgan imkoniyati cheklangan o'quvchilar ko'pi hozir kunda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatyaptiki, o'quvchilar fanlarni o'zlashtirish qiyinday, lekin xotiralar yaxshiligini hisobga olib ularni ijodiy qobiliyatlarini oshirishligi xaqida xulosaga keldik.

Muammoni hal qilishning asosiy yo'llaridan biri ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish va joriy etishdan iboratdir.

Keyingi yillarda ta'lim tizimida, jumladan, imkoniyati cheklangan shaxlar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktablarida maxsus yordamga muhtoj imkoniyati cheklangan o'quvchilarni o'qishga, mehnat va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda kasb-hunarga tayyorlash yuzasidan to'plangan tajribalarni o'rganish hamda tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, o'qish, mehnat va kasb-hunar ta'limi mazmunini takomillashtirishda o'quvchilarning jismoniy yoki ruhiy rivojlanishidagi nuqsonlari va ularning qiziqishlari hisobga olinmaganligi, maxsus maktablarda, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktablarida ta'lim bo'yicha ilmiy-nazariy, metodik va dars mashg'ulotlariga o'qitish metodlarini toifalash, ko'zi ojiz va ko'rish imkoniyati cheklangan o'quvchilarni o'qitish metodlari, tayanch harakatida nuqsoni bor imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishlashda interfaol metodlar, kreativ yondashuvlarining yetarli darajada qo'llanilmaganligi sababli maxsus yordamga muhtoj imkoniyati cheklangan o'quvchilarda ta'lim va mehnat qadriyatlarini va kasb-hunar haqida chuqur bilim, malaka va ko'nikmalarning yetishmasligiga olib keldi.

Alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish, ularni qiziqtirish ijodiy faoliyati oshirish hamda ushbu muammolari hal qilishda yangi adabiyotlar hozirda dolzarb bo'lib kelmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda maxsus maktablarda maxsus yordamga muhtoj imkoniyati cheklangan o'quvchilarni o'qitishda ta'lim texnologiyalari o'zgartirilmasa, u holda ularning bilim zaxirasi va qanday malakaga ega bo'lishini tasavvur qilish mumkin.

O'quvchilar odatdagi texnologiyalarga qaraganda axborot kommunikatsion texnologiyalari yordamida bilimlarni 40-60 foizgacha tez va qisqa muddatda o'zlashtiradi.

Shu o'rinda imkoniyati cheklangan o'quvchilarga ijodiy qobiliyatni rivojlantirish va ularga ta'lim berishda biz quyidagi muommalarga duch kelamiz:

- alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish dolzarb pedagogik metodlar bo'yicha o'zbek tilida elektron darslik va metodik qo'llanmalarning kamligi;

- alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda o'quvchilar shaxsining pedagogik-psixologik jihatdan yetarli darajada o'rganilmaganligi;

- maxsus maktablar ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlarida sobiq ittifoqdan olingan dasturlar asos bo'lib, milliy qadriyatlarimizga, ulardan foydalangan holda dastlabki mehnat ko'nikmalarini shakllantirishga yetarlicha e'tibor berilmaganligi;

- alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ijodiy yondashilmaganligi;

-alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda ta'lim muassasalarida texnikalar yetarli darajada emasligi;

-maxsus maktablar va ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktablari uchun masofaviy ta'lim tizimlarining yetarlicha yaratilmaganligi;

-alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga doir pedagogik diagnostik ishlar bo'yicha o'quv qo'llanmalar, uslubiy ko'rsatmalar kamligi;

- dars mashg'ulotlarida o'qituvchi tomonidan kreativ yondashish kamligi;

-alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga doir tajriba sinov ishlari yuzasidan Respublikamizda maxsus ilmiy tadqiqot ishlarining yo'qligi bilan ham belgilanadi.

Endilikda imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalaridagi sharoit tubdan o'zgarib bormoqda. Biroq bu faoliyatni, muayyan natijalarga olib keluvchi jarayonlarni ilmiy asosda maxsus tashkil etish zarur. Hozirda o'quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashni ularning qiziqishlari bilan bog'lab olib borish zarurati yuzaga keldi.

Bu muammolarni hal etishda hamda ta'lim muassasalarida alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish metodlarini ishlab chiqish va uning maxsus yordamga muhtoj o'quvchilarga mos pedagogik, psixologik va metodik jihatlarini hisobga olish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nabiyeva. G. A. (2021). Imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim-tarbiya olishlari. Scientific progress, 7(5).

2. Boltayeva Sh. Ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish. // xalq ta'limi, 2004, № 3.-34-34 betlar.

3. "Alohida yordamga muhtoj bolalarni ma'naviy va estetik rivojlantirish" mavzusidagi ilmiy - nazariy konferensiya materiallari. Toshkent-"uzinkomsentr"-2002 yil.

4. Azarova L.N. Yosh o'quvchilarning ijodiy shaxsini qanday rivojlantirish kerak. // amaliy psixolog jurnali.- 1998.- №4.- 83-bet.

5. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 49-57.

6. Горовик, А. А., & Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. *Universum: технические науки*, (8-1 (77)), 27-29.
7. Tursunov, N. N., & Hoshimov, U. S. (2022). TA'LIM TIZIMIDA KO'ZI OJIZ O'QUVCHILARNI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALAR. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(5), 990-993.
8. Hamidullo o'g'li, T. N. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. *Scientific Impulse*, 1(2), 535-537.
9. Hamidullo o'g'li, Tursunov Hojiakbar, and Boymuratov Erkin Kamolovich. "IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH TAJRIBASI." *Scientific Impulse* 1.7 (2023): 648-653.
10. Расулов, Х. (2021). Ҳуқуқий маданият: муаммонинг ижтимоий-сиёсий омиллари. *Общество и инновации*, 2(10/S), 335-342.
11. Ramazanovich, M. N., & Abdunazarovich, P. B. (2021). Protection of Family and Youth in the Constitution of the Republic of Uzbekistan. *Middle European Scientific Bulletin*, 18, 221-223.
12. Расулов, Х. М. (2021). ВЫБОРНЫЙ ЯВЛЕНИЕ И ПРОБЛЕМА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЭЛЕКТРОКУЛЬТУРЫ НАСЕЛЕНИЯ. *Восточно-европейский научный журнал*, (11-6 (75)), 28-32.
13. Rasulov, H. M. (2021). ELECTION PHENOMENON I THE PROBLEM OF IMPROVING THE ELECTRIC CULTURE OF THE POPULATION. *ВОСТОЧНО ЕВРОПЕЙСКИЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ*, 75(part 6), 28.
14. Расулов, Х. М. (2022). СИЁСИЙ МУНОСАБАТЛАРДА СИЁСИЙ МАДАНИЯТ. *Academic research in educational sciences*, 3(NUU Conference 2), 863-867.
15. Rasulov, H. M. (2021). ELECTION PHENOMENON I THE PROBLEM OF IMPROVING THE ELECTRIC CULTURE OF THE POPULATION. *ВОСТОЧНО ЕВРОПЕЙСКИЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ*, 75(part 6), 28.
16. Расулов, Х. М. (2020). ТЕХНОЛОГИИ ОБЪЯСНИТЕЛЬНО-РЕПРОДУКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, (3), 45-49.
17. Расулов, Х. М. (2020). JAMOATCHILIK NAZORATI VA RAHBAR KADRLAR FAOLIYATI SIYOSIY-HUQUQIY MADANIYAT IFODASI SIFATIDA. *Журнал Социальных Исследований*, 3(4).
18. Расулов, Х. М. (2022). МАЪНАВИЙ ТАРФИБОТДА ИЛФОР ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАР. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 818-826.
18. Mamanovich, R. N. (2022). The mass media as a subject of political and legal propaganda. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(10), 122-19.
- Ramazanovich, N. M., & Mamanorov, K. (2022). CONSTITUTIONAL-LEGAL RELATIONS, THEIR SUBJECTS, OBJECTS AND TYPES. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(11), 747-756.

20. Normamat Mallaev Ramazanovich. (2022). CONSTITUTIONAL-LEGAL STATUS OF MASS MEDIA. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(11), 70–78.
21. Rasulov, H. M. (2021). ELECTION PHENOMENON I THE PROBLEM OF IMPROVING THE ELECTRIC CULTURE OF THE POPULATION. ВОСТОЧНО ЕВРОПЕЙСКИЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ, 75(part 6), 28.
22. Ramazanovich, M. N., & Kabilovich, B. O. (2021). Constitutional and Legal Framework for Providing International Peace. Middle European Scientific Bulletin, 18, 218-220.
23. Хакимова, М. (2021). Ўзбекистонда миллатлараро тотувликни таъминлаш соҳасидаги устувор йўналишлар. Общество и инновации, 2(10/S), 261-267.
24. Normamat Mallaev Ramazanovich, & Khaitmurod Mamanorov. (2022). PECULIARITIES OF CONSTITUTIONAL-LEGAL RELATIONS. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(11), 89–94.
25. Ramazanovich, Mallaev N. "Comparative Analysis of National and Foreign Experiences on the Example of the Constitutional and Legal Basis of Ecological." International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, no. 2, 2020, pp. 1-5.
26. Normamat Mallaev Ramazanovich, IMPORTANCE AND ANALYSIS OF THE CONCEPT OF CIVIL RIGHTS , Web of Scientist: International Scientific Research Journal: Vol. 3 No. 10 (2022): was
27. Кушоков, С. (2021). Сополли ва Жарқўтон маданиятида дафн маросимлари. Общество и инновации, 2(11/S), 150-154.
28. Kushokov, S. Y. (2021). The Role of Zoroastrianism in the Ancient State of Bactria. World Bulletin of Social Sciences, 4(11), 69-72.
29. Yusupovich, K. S. (2020). The Emergence Of Religious Views Is Exemplified By The Southern Regions. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(10), 143-145.
30. Yusupovich, K. S. (2021). Қадимий Дафн Маросимларидаги Анъана Жараёнлари Ўзбекистон Жануби Мисолида. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI, 1(6), 72-77.
31. Сафарали, К. Ю. (2020). Чорвадор Қабилалар Дафн Маросимлари Ва Уларнинг Хусусиятлари. Взгляд В Прошлое, 3(4).
32. Сафарали, К. Ю., & Хуррамов, М. (2022). ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ МАЛАЙЗИЯ ҲАМДА ИНДОНЕЗИЯ ДАВЛАТЛАРИ БИЛАН ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА МАДАНИЙ СОҲАЛАРДАГИ ҲАМКОРЛИГИ. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI, 176-186.
33. Kushokov, S. Y., & Ahmedov, S. (2021). THE STRUCTURE OF TURKISH TRIBES IN CENTRAL ASIA AND ITS HISTORICAL IMPORTANCE. European Scholar Journal, 2 (10), 25-27.

Of Two Languages, Settlement And Livestock Tribes. The American Journal of Interdisciplinary.

34.Kushokov, S. Y., & Ahmedov, S. (2021). THE STRUCTURE OF TURKISH TRIBES IN CENTRAL ASIA AND ITS HISTORICAL IMPORTANCE. European Scholar Journal, 2 (10), 25-27. Of Two Languages, Settlement And Livestock Tribes. The American Journal of Interdisciplinary